

№	Talim natijalari (Learning outcomes) (kompetensiyaning asosiy birliklari)	Modul nomi	
1	LO 1. Arxitektura yo‘nalishida zarur bo‘lgan matematik va fizik qonuniyatlarni puxta o‘zlashtirib, ularni real loyihalash jarayonlarida qo‘llay oladi.	Math1M16 Math2M26 Math3M36 Phys1M16 Phys2M26 Phys3M36	Matematika Fizika
2	LO 2. Fazoviy shakllar, ularning proeksiyalari va konstruktiv-geometrik munosabatlarini tasavvur qila olish hamda ularni grafik modellar orqali ifodalay olish kompetensiyasiga ega bo‘ladi.	DGIG1M14 DGIG2M24 ITM25	Muhandislik va kompyuter grafikasi Axborot texnologiyalari
3	LO 3. Rus/o‘zbek, ingliz va nemis tillarida og‘zaki va yozma muloqot qilish, kasbiy hamda ilmiy mazmundagi ma’lumotlarni izchil ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.	RLM24/ULM24 FLEM18 FLGM18	Rus tili/O'zbek tili Ingliz tili Nemis tili
4	LO 4. Falsafiy bilimlar asosida inson, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglagan holda, arxitektura faoliyatiga xos estetik, axloqiy va ijtimoiy tamoyillarni to‘g‘ri talqin qila oladi.	PhylM25	Falsafa
5	LO 5. Jismoniy rivojlanishning asosiy tamoyillarini o‘zlashtirib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.	SpM11	Jismoniy tarbiya va sport *
6	LO 6. Arxitekturaviy bino va inshootlarni loyihalash va qurilish jarayonlarida zarur bo‘ladigan asosiy muhandislik bilimlari asosida inshoot elementlarining mustahkamligi, elastiklik va deformatsiyasini hisoblash hamda xavfsizligini baholash qobiliyatiga ega bo‘ladi.	ApplMechM34 MatResM46 GeodM44	Nazariy mexanika Materiallar qarshiligi Geodeziya
7	LO 7. Qurilish materiallarining kimyoviy tarkibi, fizik-mexanik xossalari va ekologik xavfsizligini e‘tiborga olgan holda, loyihalash jarayonlarida xom-ashyo va materiallardan samarali foydalana oladi hamda energiya tejamkor kompozit materiallarni qo‘llay oladi.	GChemM16 BMM44	Umumiy kimyo Qurilish materiallari va buyumlari
8	LO 8. Arxitektura ob‘ektlari va manzaralarni badiiy tasvirlashda estetik qarorlar qabul qilish malakasiga ega bo‘ladi, shuningdek barqarorlik, funksionallik va estetik talablarni birlashtirgan innovatsion arxitektura yechimlarini ishlab chiqish qobiliyatini namoyish qila oladi.	DPAM34 CThM34 AGM54 ADDPGM54 DACAM54	Arxitekturada qalamtasvir va rangtasvir Ranglar nazariyasi Arxitekturaviy grafika Arxitekturada chizmalarini bezash va taqdimot grafikasi Arxitekturada rasm va komponovka

9	LO 9. Arxitektura sohasida iqtisodiy tushunchalar va tahlil vositalaridan foydalanib, biznes jarayonlarini, tadbirkorlik va strategik rejalash malakalarini rivojlantiradi, biznes muammolarini aniqlash, qarorlar qabul qilish va ularni amaliy loyihalarda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi.	EconM46 PBPM46 BAM46	Iqtisodiyot Biznes jarayonlarini loyihalash Biznes tahlil
10	LO 10. Arxitektura rivojlanishining tarixiy bosqichlari, turli davrlar va madaniyatlarda shakllangan me'moriy uslublar, yondashuvlar va nazariy konsepsiyalar haqidagi chuqur bilimlarga hamda arxitektura yodgorliklarida uchraydigan bezak elementlarining tarixiy, madaniy va estetik ahamiyatining ramziy ma'nolarini anglagan holda rekonstruksiya, restavratsiya yoki konsersatsiya yechimlarini yarata oladi.	HTA1M56 HTA2M66 DUAMM34 RRAMM76	Arxitektura tarixi va nazariyasi Arxitektura yodgorliklarida qo'llanilgan bezaklar Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish
11	LO 11. Talaba bino va inshootlarning asosiy konstruktiv elementlari hamda turli konstruktiv tizimlarni tahlil qilib, ularni me'yoriy talablar asosida statik yuklar ta'siriga hisoblash, loyihalash va chizmalarda to'g'ri ifodalash orqali loyihalash jarayonida konstruktiv yechimlardan maqbulini tanlay oladi.	ACM56 BCM64 CAMM56 RCSSM64 MSTM64 WCTM56	Arxitekturaviy konstruksiyalar Qurilish konstruksiyalari Me'moriy obidalar konstruksiyasi Temirbeton va tosh konstruksiyalari Metall konstruksiyalari Yog'och konstruksiyalari
12	LO 12. Dinamik kuchlar ta'sirida bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash maqsadida binolardagi tebranishlarini, zo'riqish va deformatsiyalarini hisoblash ishlarini bajara oladi.	DPSTM64 ERBSSM74	Inshootlar dinamikasi va ustivorligi Bino va inshootlarning zilzilabardoshligi, seysmik musthkamligi
13	LO 13. Arxitekturaviy shakl va makon tamoyillarini tahlil qilib, estetik, funksional va konstruktiv talablarga mos hajmiy-kompozitsion yechimlarni ishlab chiqish hamda amaliy loyihalarda ijodiy hamda me'yoriy yondashuvlarni qo'llay oladi.	FACD1M34 FACD2M44 AFVSA1M34 AFVSA2M44 CATUP1M34 CATUP2M44 AD1M56 AD2M66 TBSM64 ABM64	Arxitekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari Arxitektura shakllari va hajm-makon tahlili Shaharsozlikda kompozitsion yondashuvlar Arxitekturaviy loyihalash Bino va inshootlar tipologiyasi Arxitekturaviy bionika
14	LO 14. Sanoat va qishloq xo'jaligi binolarini loyihalash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va va ilg'or tajribalarni hamda hududiy va funksional talablarni hisobga olib estetik va samarali arxitekturaviy yechimlarni ishlab chiqishni bajara oladi.	DIBM64 DABM64	Sanoat binolarini loyihalash Qishloq xo'jaligi binolarini loyihalash
15	LO 15. Bino va inshootlarning maketlarini tayyorlash hamda kichik arxitekturaviy elementlarni modellashtirish orqali loyihaviy g'oyalarni vizual va hajmiy-fazoviy	AMM86 ADSMM86	Arxitekturaviy maketlash Arxitekturaviy detallar va konstruktiv modellashtirish

	shaklda aniq ifodalash, shuningdek, arxitekturaviy loyiha maketlarini mukammal shakllantirish malakasini egallaydi.		
16	LO 16. Zamonaviy arxitektura loyihalarida BIM, parametrik va raqamli modellashtirish, shuningdek sun'iy intellekt va GIS texnologiyalaridan foydalangan holda murakkab shakllarni yaratish, integratsiyalash va loyiha qarorlarini tahlil qila oladi, shu bilan birga arxitektura obyektlarini interaktiv va kontekstga mos tarzda loyihalash malakasini egallaydi.	BIMTDM54 CPDM54 DAPMM54 ADEAIM76 DDADM76 IAADM76	Loyihalashda BIM texnologiyalari Loyihalashda kompyuter dasturlari Raqamli arxitektura va parametrik modellashtirish Arxitektura dizayn sun'iy intellekt davrida Ma'lumotga asoslangan arxitektura dizayni Interaktiv arxitektura va moslashuvchan dizayn
17	LO 17. Turar-joy va jamoat binolarining interyerlarini me'moriy, badiiy va funksional tamoyillar asosida yarata oladi, foydalanuvchi psixologiyasini hisobga olgan holda tarixiy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan inter'er dizayn yechimlarini ishlab chiqishda foydalana oladi.	IDM54 EPDM54 HIDM54	Inter'er va dizayn Dizaynerlar uchun muhit psixologiyasi Madaniy meros inter'er dizayni
18	LO 18. Shahar va tumanlarning bosh rejasini ishlab chiqish, hududiy rejalashtirish, funksional zonalash, infratuzilma va transport tizimini tahlil qilish ko'nikmalarini egallash orqali tabiat va inson uyg'unligini landshaft va urbanistik yechimlar ishlab chiqishda namoyon eta oladi.	DCDMBM74 DRMPM74 TMRCCM74 ELSIM86 LA1M76 LA2M86 MLEEM86	Shahar, tuman bosh rejalarini loyihalash Hududlarning master rejalarini ishlab chiqish Shahar markazlarini transformatsiyalash va zamonaviy rekonstruksiya Muhandislik obodonlashtirish va ko'chalar inter'eri Landshaft arxitekturasi Landshaft va muhit elementlarini modellashtirish
19	LO 19. Arxitekturaviy loyihalarda binolarni muhandislik tizimlari va elektr jihozlari bilan ta'minlash, ularning ishlash prinsiplarini tahlil qilish hamda loyihalash jarayonlarida energiya tejovchi, ekologik barqaror hamda xavfsiz muhandislik infratuzilmasini yaratish malakasini egallaydi.	ElectrM36 EEBM74 WSSSM74 BHGSVM74 EEBEM64	Elektrotexnika Binolarni muhandislik jixozlash Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari Issiqlik, gaz ta'minoti va ventilyatsiya asoslari Energiya samarador binolar injeneringi
20	LO 20. Qurilish ob'ektlarini moliyaviy jihatdan asoslash, smeta hujjatlarini tuzish va tahlil qilish, shuningdek qurilish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida xavfsiz hamda me'yoriy talablar bilan uyg'unlashtirish kabi masalalarni hal eta oladi.	EWCM84 CPOM84 TCPTM84	Qurilishda smeta ishi Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish Qurilish jarayonlari texnologiyasi

21	LO 21. Amaldagi me'yoriy qoidalar va standartlar asosida mustaqil loyiha ishlab chiqishda arxitektura sohasida nazariy va amaliy bilimlarni real loyihalarga tadbiq eta oladi, shuningdek, funksional, konstruktiv hamda badiiy-estetik yechimlarni uyg'unlashtirish, orqali loyiha hujjatlarini tayyorlash va himoya qilish ishlarini bajara oladi.	QP1M46 QP2M66 QP3M84 FWM84	Malakaviy amaliyotlar Yakuniy davlat attestatsiyasi / Bitiruv malakaviy ish himoyasi
----	--	---	---